

TADBIRKORLIK MUHITI TUSHUNCHASI VA UNING DAVLAT IQTISODIY SIYOSATI TIZIMIDA TUTGAN O`RNI

Olimov Shohijahon Fozilxon o`g`li

Namangan davlat universiteti

Iqtisodiyot fakulteti

Iqtisodiyot yo`nalishi 3-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8363343>

Annotatsiya. Ushbu maqolada kichik biznes va tadbirkorlikni davlatning iqtisodiy siyosatidagi muhim o`rni o`rganilgan va shu bilan birga uning o`rnini, ahamiyatini oshirish choralari ko`rib chiqilgan.

Kalit so`zlar: tadbirkorlik, kichik biznes, bozor subyekti, tadbirkorlik muhiti.

Kirish. Tadbirkorlikni rivojlantirish O`zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning eng muhim yo`nalishlaridan biridir. Bandlik muammosini hal etish, bozorning mo`l-ko`lligini ta`minlash hamda iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishdagi imkoniyatlarini inobatga olib, mamlakatimizda kichik tadbirkorlikning rivojlanishiga alohida e`tibor berilmoqda.

Asosiy qism.

... O`zingiz o`ylang, aziz do`stlar, agarki yurtimizda shu sohaga o`z vaqtida katta e`tibor qaratib, uning rivoji uchun har tomonlama yo`l ochib bermaganimizda bugun bizning kuch-quvvatga to`lgan yoshlarimiz boshqalarga o`xshab qayoqqa ish izlab borardi, kimlarga muhtoj va qaram bo`lib kun ko`rar edi?"[1]

Bunda kichik tadbirkorlikning o`ziga xos quyidagi xususiyatlariga tayanilmoqda:

- bozordagi talabga tez moslasha borib, sifatli mahsulot ishlab chiqarish qobiliyati;
- nisbatan qisqa muddatlarda aholi ehtiyoji uchun zarur bo`lgan tovar va xizmatlarga bo`lgan talabni qondira olishi;
- dastlabki sarmoya hajmining nisbatan kamligi;
- tez orada yangi ishchi o`rinlari barpo etish va bandlik muammosini hal etishga ko`maklashish imkoniyati;
- biznes egasi (tadbirkor)ning tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishdagi bevosita ishtiroki va boshqalar.

"Bugungi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik o`zining iqtisodiyotimizdagi o`ta muhim va salmoqli hissasi, roli va ta`siri, sodda qilib aytganda, boshqa hech bir soha va yo`nalish o`rnini bosolmaydigan katta ahamiyati bilan davlat va jamiyatimiz rivojida alohida o`rin egallaydi.

Mustaqillik yillaridagi taraqqiyotimiz misolida shuni hech ikkilanmasdan aytish mumkinki, bu sohani rivojlantirmasdan, unga tegishli ko`mak va rag`bat bermasdan, zarur imkoniyat, imtiyoz va preferentsiyalar yaratmasdan turib, biz iqtisodiyotimizning kelajagini ta`minlay olmaymiz.

Ichki bozorimizni raqobatdosh va sifatli mahsulotlar bilan to`ldirishda, bugungi kunda biz uchun eng dolzarb masalalardan biri bo`lmish aholimizni, avvalambor, yoshlarimizni ish bilan ta`minlash va shu asnoda ularning munosib daromad topishi, farovonligining oshib borishiga erishishda ayni shu sohani tez va jadal sur`atlar bilan rivojlantirish eng asosiy omillardan biri ekanini hech unutmashimiz darkor".[2]

2000 yilda e`lon qilingan “Inson taraqqiyoti to`g`risidagi ma`ruza”da[3] kichik tadbirkorlikning iqtisodiy jihatlari hamda manfaatli xususiyatlari quyidagicha yoritiladi:

- kichik tadbirkorlik – aholining talay qismi uchun mehnatini qo`llaydigan jabha va daromad manbai, etarli malaka va tajribasi bo`lmagan, egiluvchan jadvalli ish kunini istagan aksariyat mehnat resurslarini mashg`ul etuvchi mehnat bozorining eng moslashuvchan qismi. Ayollar, ilk bor ish qidirayotgan yoshlar, ma`lumoti va mehnat tajribasi yuqori darajada bo`lmagan shaxslar ko`pincha faqat shu erdan ish topishlari mumkin. Bu jabhada mashg`ul kishilarning aksariyat qismi uchungina emas, balki ularning oila a`zolari uchun ham asosiy daromad manbai bo`lishi kichik biznes milliy farovonlikning o`sishi uchun muhim omilga aylanganidan dalolat beradi;

- kichik tadbirkorlik aholi orasida ish yuritish va tadbirkorlik ko`nikmalarini rivojlantirish, uning bozor munosabatlariga moslashganlik darajasini oshirishda potentsial samarali vositadir. U fuqarolarga nafaqat o`z ishchi kuchi, balki o`z mulki, jumladan, ishlab chiqarishga mo`ljallangan mulk egasi bo`lishiga imkon yaratib, o`rta sinf –jamiyatning progressiv taraqqiyotini ta`minlashga qodir, demokratiya va ijtimoiy barqarorlikdan manfaatdor ijtimoiy qatlamning shakllanishi uchun asos yaratadi;

- kichik tadbirkorlik butun iqtisodiyotning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. U iste`mol talabining o`zgarishlariga hammadan tez moslashadi, iqtisodiy vaziyatning tebranishlariga muvofiq tarzda o`z faoliyati ixtisosini tez va nisbatan asoratsiz o`zgartira oladi;

- kichik tadbirkorlik iqtisodiyotning hududiy tuzilmasini yaxshilaydi.

Alohida shaxs uchun esa kichik biznes bilan shug`ullanish band bo`lish va daromad olishga, ishi va shaxsiy hayotini yaxlitroq birlashtirishga, o`z qobiliyati va iste`dodini namoyon qilishga imkon yaratadi.

O`zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichi kichik tadbirkorlikni rivojlantirish, unga keng iqtisodiy erkinlik berish bilan xarakterlanadi. Kichik tadbirkorlik sub`ektlariga mustaqillik berish ularning faoliyatining yakuniy natijalari uchun javobgarlik hissini oshiradi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda kichik tadbirkorlikni rivojlantirish borasida bir qator ishlar amalga oshirildi:

- ulgurji va chakana savdo tizimi isloh qilinmoqda;
- kichik tadbirkorlik korxonalariga infratuzilma bo`linmalari tomonidan xizmat ko`rsatishning samarali tizimi yaratilmoqda;
- kichik tadbirkorlik sub`ektlarining qonuniy huquqlari va manfaatlarini muhofaza qilish hamda tadbirkorlik erkinligini kafolatlash tizimi shakllanmoqda;
- tadbirkorlarni davlat ro`yxatiga olish va hisobga qo`yishning engillashtirilgan tartibi joriy etildi;
- statistika va soliq hisobotining qisqartirilgan shakli kiritildi;
- kichik tadbirkorlik sub`ektlarining tashqi iqtisodiy faoliyati erkinlashtirildi;
- ish boshlovchi tadbirkorlar uchun dastlabki sarmoyani shakllantirish va boshqa shakllardagi yangi moliyaviy qo`llab-quvvatlash tizimi joriy etildi va boshqalar.

Statistik ma`lumotlarga ko`ra, kichik tadbirkorlikni qo`llab-quvvatlash hamda tadbirkorlarning huquqlari va manfaatlarini himoyalash borasida amalga oshirilgan ishlar natijasida iqtisodiyotning bu tarmog`i tobora mustahkamlanib, uning respublikamiz

iqtisodiyotidagi o`rni, ish bilan ta`minlash va mahsulot ishlab chiqarishdagi salmog`i yildan-yilga oshib bormoqda.

Kichik biznesning mahsulot eksport qilish jarayonidagi ishtirokini qoniqarli deb bo`lmaydi. Bularga asosan quyidagi omillar sabab bo`lmoqda:

- respublikada kichik tadbirkorlikning rivojlanishi uchun mavjud bo`lgan mehnat, xom ashyo, ilmiy-texnik va boshqa salohiyatdan to`liq foydalanilmayotganligi;
- kichik tadbirkorlik sub`ektlarida daslabki sarmoya va ortiqcha mablag`larning etishmasligi;
- bank kreditlari, xalqaro moliya tashkilotlari kredit resurslaridan foydalanish shartlarining murakkabligi;
- kreditni sug`urtalash, kafolat bilan ta`minlash hamda uni qaytarish bilan bog`liq muammolar;
- kichik tadbirkorlik sub`ektlariga xizmat ko`rsatuvchi bank tizimi va boshqa infratuzilmalarning etarli darajada taraqqiy etmaganligi;
- ishlab chiqarish vositalari va iste`mol bozorining yaxshi taraqqiy etmaganligi oqibatida mol yuboruvchilar va xaridorlar o`rtasidagi munosabatlarning chigallashuvi;
- kichik tadbirkorlik mahsulotlarining sifati yuqori emasligi oqibatida talabning pastligi;
- ayrim hollarda mansabdor shaxslar tomonidan kichik tadbirkorlik sub`ektlarining qonuniy huquqlari buzilishi va manfaatlariga putur etkazilishi;
- kichik tadbirkorlik sohasida puxta tayyorlangan, savodli va ishbilarmon menejerlar va mutaxassislar tayyorlash tizimining nomukammalligi, kichik tadbirkorlik xodimlarining iqtisodiy va huquqiy bilim saviyasi pastligi va boshqalar.

Bu kabi muammolarni samarali hal etish uchun respublika hukumatining kichik tadbirkorlikni qo`llab-quvvatlashga qaratilgan strategik dasturlari amalga oshirilishini davom ettirish zarur. Bunday kontseptsiya asosida nomutanosibliklarni bartaraf etishga, hududlarning iqtisodiy salohiyatidan samaraliroq foydalanishga imkon beruvchi tuzilmaviy o`zgarishlar yotmog`i lozim.

Kichik tadbirkorlikni rivojlantirish kontseptsiyasi quyidagilar asosida shakllantirilmog`i zarur:

- kichik tadbirkorlikni rivjlantirishning mintaqa – tarmoq dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, barcha tarmoqlarda xususiy korxonalar, jamiyatlar, shirkatlar tuzish bo`yicha shaxsiy tashabbuslarni rag`batlantirish;
- kichik korxonalarining kredit manbalari va sarmoyalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, davlat tomonidan kreditni kafolatlash jamg`armalarini yaratish;
- kichik tadbirkorlikka xizmat ko`rsatuvchi bozor infratuzilmalarini yanada kengaytirish va rivojlantirish;
- kichik korxonalarining xom ashyo, texnologiyalardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish, kichik biznes korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni sotishning samarali tizimini yaratish;
- kichik tadbirkorlik korxonalarini tashkil etish va ular faoliyatining me`yoriy-huquqiy negizini takomillashtirish;
- kichik tadbirkorlik faoliyati ko`rsatkichlarining hisobi va tahlili tizimini soddalashtirish;
- kichik tadbirkorlik uchun kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini rivojlantirish;

- tadbirkorlik xatarlari (risklari)dan himoyalaniş tizimini ta'minlash uchun sug'urta xizmatining ahamiyatini oshirish.

Kichik tadbirkorlikni rivojlantirish kontseptsiyasida asosiy e'tibor birinchi navbatda iqtisodiy salohiyatga ega bo'lgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash, tarmoq va hudud uchun zarur, ammo past rentabelli sohalarning rivoji uchun qulay imkoniyatlar yaratish, respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy siyosati yo'nalishlari va maqsadlariga mos faoliyat yuritayotgan xo'jalik tuzilmalarini rag'batlantirish, hududiy ahamiyatga ega mahsulot ishlab chiqaruvchi kichik korxonalariga soliq imtiyozlari belgilash, lizing xizmati va investitsion xatarlarni sug'urtalash tizimini kengaytirish va moliyaviy imkoniyatlari chegaralangan kichik tadbirkorlik korxonalarining bank kreditlaridan foydalanishiga yo'l ochuvchi sharoitlarni ta'minlash vazifalariga qaratilmog'i kerak.

Kichik tadbirkorlik sohasida band firmalar ko'pincha yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni tashkil etishga urinishlari bilan ajralib turadi. Ular faoliyatining strategiyasi asosan quyidagilardan tashkil topadi:

Birinchidan, yuqori texnologiyali ishlab chiqarish asosida rivojlanayotgan firmalar raqobat kurashidan manfaatdor emas. Shu sababli ular bozordagi yuqori foyda keltiradigan bo'shliqni egallashga harakat qilib, tor darajada ixtisoslashgan mahsulot ishlab chiqarishga intiladilar.

Ikkinchidan, bunday firmalar, masalan, elektronika bilan shug'ullanuvchi firmalar, yirik korxonalardan butlovchi qismlarni sotib olish orqali ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga harakat qiladilar.

Uchinchidan, ko'pchilik firmalar ishlab chiqarish jarayonini engillashtirish maqsadida yoki bitta turdagi mahsulot ishlab chiqarishga yoki bir turdagi texnologiyaga ixtisoslashadi. Ular ana shu mahsulot yoki texnologiyani iste'molchilarning talabiga moslashga harakat qilishadi. Yirik korxonalariga esa keng iste'molchilarning talabini qondirishga mos bo'lgan andozali mahsulotlarni ishlab chiqarish xos. Kichik korxonalarining yirik korxonalardan farqi va afzalliklari ham ana shunda.

To'rtinchidan, deyarli barcha kichik korxonalar mustaqillikni saqlab qolishga intilib, tashqaridan mablag' jalb etmaslikka harakat qiladi.

Mutaxassislarining fikricha, kichik firmalar mahsulot ishlab chiqarish texnologiyasi rivojlanib borishi bilan mustaqillik va o'ziga xos bo'lgan ijtimoiy-madaniy muhitni shakllantirishga intiladilar.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasida O'zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirish yo'nalishida qilinishi lozim bo'lgan ishlar haqida alohida to'xtalib, quyidagilarni ta'kidlab o'tganlar: "... mamlakatimizning barcha mintaqalarida biznesni rivojlantirish uchun yanada qulay ishchan muhit yaratish, tadbirkorlik, kichik va xususiy biznesga yanada keng erkinlik berish, byurokratik to'siq va g'ovlarni bartaraf etish bo'yicha zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim".[4]

Ma'lumki, har qanday tadbirkorlik ma'lum bir hududda: mamlakat, viloyat, shahar yoki qishloq miqyosida olib boriladi. Tadbirkorlik faoliyatini samarali olib borish uchun ma'lum bir ishchi muhiti bo'lishi kerak.

Bunday muhit ayrim hududlar miqyosida mujassamlanib, o'zida ishbilarmonlik funktsiyalarini amalga oshirishni mujassamlantirgan. Umumiy holda tadbirkorlik muhiti

asosan quyidagi to'rtta omil: huquqiy, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy omillarning o'zaro uyg'unligi natijasida amalga oshiriladi (3-rasm). Ular rag'batlantirish ko'rinishida ham shakllanishi mumkin. Ushbu holda mamlakat yoki mintaqadagi mavjud shart-sharoitlar tadbirkorlik faoliyatini olib borish uchun mos bo'ladi. Chunki, bunday muhit tadbirkorga amalga oshirayotgan ishlarining natijalari qanday bo'lishini oldindan ko'ra bilishiga keng imkoniyat tug'diradi. Tadbirkorning o'z ishi natijalarini oldindan ko'ra bilishi tavakkallik tushunchasiga teskari holda ifoda etiladi. Agar tadbirkor ma'lum bir muhitda tavakkalchilik asosida faoliyat ko'rsatayotgan bo'lsa, u holda u o'zgaruvchanlik, berqarorlik, tavakkalchilik bilan tavsiflanadi. Bunday muhit yuqorida keltirilgan ijobiy muhitga to'g'ri kelmaydi. Amalda ko'p hollarda tadbirkorlik muhitining ma'lum bir omili tadbirkorlar faoliyati samarasiga natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatadi, deb bo'lmaydi. Chunki, tadbirkorni eng avvalo ko'proq tadbirkorlik muhitini belgilovchi omillarning o'zaro bog'liqligi qiziqtiradi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan omillardan **huquqiy omillar guruhi** asosiy omil bo'lib hisoblanadi, chunki tadbirkorlik faoliyatini olib borish uchun tadbirkorlik muhitida amalga oshirilishi mumkin bo'lgan "o'yinlar qoidasi"ni ko'rsatib beradi. "O'yinlar qoidasi" tushunchasi ruxsat etilgan va amalga oshirilayotgan ish (harakat)larni o'z ichiga oladi. Ruxsat etilgan ish (harakat)larga nisbatan o'yin qoidalari turli shaklda namoyon bo'ladi. O'yin qoidalari nima qilish mumkin-u nima qilish mumkin emas tamoyili asosida ishlab chiqilishi mumkin. Bu qoidalarda tadbirkorlik faoliyatini olib borish yo'lidagi barcha chegara yoki cheklovlar yaqqol ko'rsatilib berilishi kerak. Umuman olganda, huquqiy omil – tadbirkorlik faoliyatini yuritish yo'lidagi barcha qonunlar (soliq, er, mehnat munosabatlari) va yo'riqnomalar majmui bo'lib, tadbirkorlik faoliyatini tartibga soladi hamda tadbirkorning iqtisodiy jarayondagi boshqa sub'ektlar bilan munosabatini mujassamlantiradi (3-rasm).

Huquqiy bazaning to'liq yoki bir me'yorda yuritilmasligi tadbirkorlik faolligi darajasiga katta salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida amaliyotda tadbir qilinayotgan iqtisodiy islohotlarning asosini tashkil qilayotgan bir butun huquqiy baza mavjuddir.


Huquqiy omilning tavsifiga «huquqiy madaniyat» tushunchasi ham kiradi. Buning ostida millatning qonunlarga to'liq rioya qilishi, ya'ni insonlarning ongida qonunlar talabini bajarish kerak degan tushunchaning bo'lishi tushuniladi. Agar, kerak bo'lgan barcha qonunlar qabul qilinsa-yu, lekin ular amalda ishlamasa yoki tadbir qilinmasa, bunday jamiyatni qonunlarga bo'ysunuvchan deb bo'lmaydi va buni tadbirkor o'z faoliyatini yuritishda e'tiborga olishi shartdir.

Siyosiy omil tadbirkorlik jarayonida bo'layotgan barcha hodisalarga davlatning munosabatini va ularga davlatning ta'sirini belgilab beradi. Davlatning tadbirkor faoliyatiga qay darajada ta'sir ko'rsatishi yoki aralashishi kerakligi ham siyosiy omil tushunchasiga kiradi. Bunday aralashish oldindan belgilanmagan yoki belgilangan bo'lishi mumkin. Umuman olganda, tadbirkorlik faolligi darajasiga davlatning munosabati rag'batlantirish yoki qo'shilishmaslik ko'rinishida namoyon bo'ladi (3-rasm).

Har bir mamlakatda tadbirkorlikning rivojlanishiga undagi siyosiy tizimning barqarorligi katta ta'sir ko'rsatadi. Agar siyosiy tizim barqaror bo'lmasa, tadbirkorlar katta investitsiyalarni jalb qilmasdan yuqori darajadagi foyda olish maqsadida kichik muddatga mo'ljallangan turli xildagi operatsiyalarni amalga oshirishga harakat qilishadi. Siyosiy

ahvolning barqarorligi tadbirkorga o'z faoliyatini strategik jihatdan loyihalashtirish, ya'ni uzoq muddatga mo'ljallangan ishlarni amalga oshirish imkonini beradi.

3-rasm. Tadbirkorlik muhitiga ta'sir etuvchi omillar klasteri



Ijtimoiy omil boshqalarga nisbatan o'zining tarkibi jihatidan anchagina murakkab hisoblanadi. Shuning uchun ham uning tarkibi ko'pgina elementlardan tarkib topadi. Agar tadbirkor ularni e'tiborga olmasa, kelgusida salbiy natijalarga olib kelishi mumkin. Quyidagilar bu omilning asosiy elementlari hisoblanadi:

- jamiyatda mafkuraning holati;
- milliy urf-odatlar;
- millatning madaniy va maishiy odatlari;
- atrofdagi kishilarning tadbirkor va tadbirkorlik faoliyatiga bo'lgan munosabati;
- davlatning tadbirkor va tadbirkorlik faoliyatiga bo'lgan munosabati (3-rasm).

Iqtisodiy omil bozordagi raqobatni va narx-navo holatini o'zida aks ettiradi. Narx-navo tizimi, o'z navbatida, narxlarning darajasi, ishlab chiqarish jarayoniga tadbirkor tomonidan jalb qilinayotgan ishlab chiqarish omillari, ishchi kuchi, kredit stavkasi miqdori hamda soliq va majburiy to'lovlarni o'z ichiga oladi. Bunda bozordagi raqobat shart-sharoitlari sifat va miqdoriy jihatdan tahlil qilib chiqiladi (3-rasm).

Tadbirkorlikni davlat tomonidan ma'lum bir shart-sharoitlar yaratilgandagina amalga oshirish mumkindir. Uning tarkib topishi avvalambor jamiyatdagi ma'lum bir vaziyatning vujudga kelishi bilan bog'liq bo'lib, undagi siyosiy va iqtisodiy vaziyat tadbirkorlik faoliyatini tarkib toptirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov tashabbusi bilan kerakli qonunlar, qarorlar, farmonlar va shu kabi huquqiy-me'yoriy hujjatlar qabul qilingan bo'lib, ular hayotga tadbiriq kelinmoqda. Shu bilan birga tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish maqsadida ikkita fond: tadbirkorlikni rivojlantirish, kichik biznesni rivojlantirishga ko'maklashish fondlari tashkil etilgan.

Tadbirkorlik faoliyatining kelajagi tadbirkorlik muhiti bilan belgilanadi, u esa jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni aks ettiradi. Ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatga iqtisodiy mustaqillik, tadbirkorlar sinfi, iqtisodiy aloqalarda bozorning ustuvorligi, tadbirkorlik kapitalini mujassamlantirish sharoitining mavjudligi va kerak bo'lgan resurslarni ishlatish kiradi.

Tadbirkorlikning ijtimoiy mustaqillik darajasi bozorda vujudga kelayotgan mustaqil korxonalar va tashkilotlar soni bilan tavsiflanadi.

Tadbirkorlik muhitini shakllantirish boshqariladigan jarayondir. Lekin boshqarish usullari ma'muriy yoki direktiv ko'rinishida bo'lishi mumkin emas. Ularning asosiy tadbirkorlik faoliyati sub'ektlariga ta'sir qiladigan choralardan emas, balki shunday sub'ektlarning tarkib topishi yo'lida qulay shart-sharoitlarni yaratishdan iborat bo'lishi kerak.

Tadbirkorlik muhitini tarkib toptirish ko'p jihatli jarayon bo'lib, u o'z ichiga quyidagi tarkiblarni qamrab oladi:

- ijtimoiy, iqtisodiy va ijtimoiy-iqtisodiy falsafaning hamda ular bilan bog'liq bo'lgan jamiyat a'zolari psixologiyasining o'zgarishi;
- tadbirkorlikni rag'batlantiruvchi milliy dastur qabul qilinishi.

Tadbirkorlikni rivojlantirishning asosiy maqsadi mamlakat iqtisodiy o'sishining qo'shimcha manbai sifatida ijtimoiy muammolarni bartaraf etishda katta rol o'ynaydi, bandlik muammolarini hal etish, milliy boylikni o'stirish va millatning farovonligi uchun xizmat qiladi. Hozirgi sharoitlarda tadbirkorlik muhitini tarkib toptirish nafaqat milliy, balki xalqaro muammolardan hisoblanadi. Mavjud bo'lgan mamlakatlarda guruhlarida, masalan, Evropa Ittifoqi miqyosida yagona tadbirkorlik muhiti vujudga kelmoqda. Bu degani tadbirkorlik faoliyatini yuritish Evropa jamiyatiga kiruvchi barcha mamlakatlarda bir-biriga o'xshab ketmoqda.

Iqtisodiy faollik va mustaqillikning muhim shakli bo'lmish tadbirkorlik respublikamizda bandlikning aniq shaklini va yangi ish joylarini barpo etish yo'lida eng rivojlangan davlatlar tomonidan qo'llab-quvvatlanib kelinmoqda. Tadbirkorlikning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi bir necha yillar mobaynida maslahatlar berish, moliyaviy yordam ko'rsatish yoki soliqlar to'lashda tadbirkorlar uchun ma'lum bir imtiyozlar berilishida aks etmoqda.

Tadbirkorlik muhiti mamlakatning rivojlanishi asosini tashkil qiladi va ishbilarmon kishilarning faoliyat mazmunini belgilab beradi. Turli mamlakatlarda tadbirkorlik muhiti turlichadir. Rivojlangan mamlakatlarda bunday muhit o'zining qulayligi hamda iqtisodiy jarayonlarning yuqori darajada unumli tashkil qilinishi bilan ajralib turadi.

Iqtisodiy jarayonlar qanchalik unumli bo'lsa, jamiyat moddiy va ma'naviy jihatdan shunchalik yuqori darajada bo'ladi. Iqtisodiy jarayonlarning samarasi amalda faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlarning soni va sifati hamda shu faoliyat bilan shug'ullanmoqchi bo'lgan kishilar soni bilan belgilanadi. Bu, o'z navbatida, tadbirkorlik ishiga yangi tadbirkorlarni jalb qilish, iqtisodiyotni erkinlashtirish va tadbirkorlik muhiti darajalariga bog'liqdir. Oxirgisi tadbirkorlik faoliyatiga davlatning aralashishi darajasiga bog'liq. Davlat shunday shart-sharoitlar yaratib berishi kerakki, unda tadbirkorlarning va tadbirkor bo'lmoqchi bo'lganlarning qiziqishi, xohishi va intilishlari maksimal darajada o'z ifodasini topsin. Jahon tajribasi ham iqtisodiy jihatdan rivojlanishga erishgan mamlakatlarda tadbirkorlik uchun barcha qulayliklar yaratib berilganligini ko'rsatmoqda.

Biznesni samarali yuritish unga tashqi muhitdan aralashishni yoqtirmaydi. Biznesni yuritishda tashqaridan ozgina aralashuv bo'lsa, uning emirilishiga olib kelmasa ham tad-

birkorlik tarkiblarining faoliyat ko'rsatishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham davlat iqtisodiyot uchun kerakli bo'lgan barcha shart-sharoitlarni yaratishi va tadbirkorlar uchun ko'proq erkinlik berishi kerak. Shunga asoslangan holda ish olib borayotgan O'zbekiston jahon iqtisodiyotida o'zining munosib o'rnini topmoqda.

Shularni nazarda tutgan holda, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov shunday deb ta'kidlaydi: «Erkin tadbirkorlik uchun iqtisodiy va huquqiy shart-sharoit yaratish zarur. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish uchun hamma yo'lni ochib berish kerak. Ularning xom ashyo resurslaridan foydalanishlariga keng yo'l ochib berish, ular ishlab chiqarayotgan mahsulot mamlakatning o'zida ham, uning tashqarisida ham sotiladigan bozorni kafolatlovchi tizimni barpo etish darkor».[5]

Yuqoridagilarni hisobga olib, tadbirkorlik muhitini yaratish bilan bog'liq bo'lgan omillar guruhlariga ajratilgan va shu asosda uning shakllanish va rivojlanish mexanizmining tashkiliy-iqtisodiy modeli yaratilgan.

Tadbirkorlik muhitiga ta'sir etuvchi omillarni quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin:

- aniq bir mahsulotga iste'molchilarning to'lov qobiliyati. Bunda bozordagi mavjud hakikiy talab bilan kutilayotgan talab farqlanadi.

Agar, mahsulot (tovar) o'zining xususiyatlari bilan avvalgilaridan ajralib tursa, unga bo'lgan talab marketing usullari bilan aniqlanadi:

- tavakkalchilik va bozordagi xatarlarni o'z zimmasiga olib, mulk javobgarligi asosida ish yurita oladigan tadbirkorlar. Ular o'z mulki, bilim va sarmoyasini samarali ishlata oluvchi yuqori malakali va ma'lum bozor vaziyatlariga moslasha olish qobiliyatiga ega bo'lishlari kerak;

- sarmoyaga ega bo'lgan investorlar. Bunga jismoniy shaxslar yoki erkin sarmoyaga ega korxonalar, tashkilotlar hamda tadbirkorlarning o'zlari ham kiradi. Ular bir qancha toifani tashkil qiladi: banklar, jamg'armalar, sug'urta kompaniyalari, davlat tashkilotlari, chet el investorlari va boshqalar;

- tadbirkorlik faoliyatini bir me'yorda olib borish imkonini beruvchi infratuzilmalar. Ular qatoriga moliya-kredit, audit, marketing, konsalting, axborot, sug'urta va shu kabi xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilotlar kiradi;

- qaror qabul qilish tizimi. Bu tizim tarkibiga avvalo, biznesning ishonchliligi va samarali bo'lishini baholash imkonini beruvchi mezonlar, usullar to'plami kiradi. Tadbirkor bu tizim orqali o'z ishi natijasini tekshirish imkoniga ega bulishi kerak.

Shu omillarning tizimli va o'zaro harakat qonuniyatlari tadbirkorlikni faollashtiradi va u xo'jalik mexanizmi orqali amalga oshiriladi. Natijada, ayrim hudud va tarmoqlarda yangi korxonalar, ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va boshqa tadbirkorlik ob'ektlari vujudga keladi. Bunday faoliyatlar tadbirkorning bilimi, sarmoyalar, bozor talabi, davlat va boshqa tashkilotlarning o'zaro manfaatli harakati tufayli faollasha boradi va bozorga moslashadi.

Ishbilarmonlik muhitini tahlil qilish jarayonida tadbirkor har bir millatning an'analari, urf-odatlarini, qanday oziq-ovqatlarni iste'mol qilishi va qanday buyumlarni kiyishini inobatga olishi maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari xalqning to'lov qobiliyatini bilish ham katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu omil iste'mol tovarlari ishlab chiqarishni tashkil qilishda katta rol o'ynaydi. Tadbirkor shu omilni har tomonlama tahlil qilishda o'z mamlakatidagi bozor vaziyatini hamda ushbu mahsulotni kelajakda eksport qilish mumkin bo'lgan qo'shni mamlakatlar bozorini ham ko'rib chiqishi kerak.

Har bir tadbirkor o'zini o'rab turgan muhitga qo'shilib ketishi uchun ishni uning tahlilidan boshlashi lozim. Tadbirkorlik muhitini tahlil qilishda tadbirkor ma'lum bir chegarada kasbiy faoliyat ko'rsatish uchun qanday iqtisodiy manfaatni amalga oshirishi mumkinligini belgilab olishi kerak. Iqtisodiy manfaatni amalga oshirish, avvalambor tadbirkorning o'z ishini tashkil qilganlik darajasiga bog'liq bo'ladi. O'z ishini tashkil qilganlik esa tadbirkorning ma'lum bir ishbilarmonlik muhitiga mustaqil kirishi bilan belgilanadi.

Tadbirkorlik muhitini takomillashtirishda davlatning nazorat faoliyatini tartibga solishning ahamiyati (I.Karimov asarlari asosida tahlil)

Iqtisodiyotni erkinlashtirish, davlat hokimiyat organlarining iqtisodiy sub'ektlar faoliyatiga aralashuvini tartibga solish, davlatning iqtisodiyotni tartibga solish va boshqarish bilan bog'liq ta'sir vositalarini imkon qadar qonun doirasida, aholi va xo'jalik sub'ektlarining qonunchilikka so'zsiz itoatiga erishish, buning uchun huquqiy madaniyatni oshirish, bilvosita usullardan esa, unifikatsiyalagan soliq stavkalari, tenderlar asosida beriladigan litsenziyalar va boshqa shu kabilarda namoyon qilish O'zbekistonning davlat mustaqilligiga erishgandan keyingi davrdagi eng muhim va ayni paytda bozorni barpo etish bilan bog'liq dastlabki yo'nalishlardan biri hisoblanib kelinadi. Bu masalaga O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov islohotlar avvalida uning asosini tashkil qiluvchi besh tamoyilning ikkinchisi, ya'ni, davlatning bosh islohotchi ekanligi tamoyilini ilgari surganda ilk bor chuqur e'tibor qaratgan edi. Keyinchalik I.A.Karimov o'zining 2002 yilning 27 yanvarida mamlakatda o'tkazilgan umumxalq referendumini munosabati bilan ommaviy axborot vositalari xodimlariga berilgan interv'yusida bu masalaga yana qaytib, jumladan shunday deydi: "...men 1991 yilda e'lon qilganimdek, davlatning o'zi asosiy islohotchi bo'lishi kerak. Bu xususda mulohaza qilib ko'rish kerak – islohotchi davlat nima? Buning ma'nosi shuki, o'tish davrida davlatning o'zi u yoki bu qonun hujjatlarini, qonunchilik tizimini ishlab chiqish tashabbuskori bo'ladi. Bundan ko'zlangan maqsad aniq: biz eskicha aqidalar, qotib qolgan qarashlar, olg'a harakatimizga xalal beruvchi qonunlardan voz kechib, umumiy tamoyillarga, demokratik va umuminsoniy qadriyatlarga yuz tutishimiz, shu yo'ldan ilgarilab borishimiz lozim".[6]

Davlatning, uning nazorat organlari va ko'p sonli boshqaruv idoralarining xo'jalik sub'ektlari faoliyatiga aralashuvida yagona asosga – u ham bo'lsa, faqat qonunga tayanish kerakligi Prezident ma'ruzalaridagi mazkur mavzuga taalluqli mulohazalar asosini tashkil qiladi: "... biz taraqqiy topgan davlatlarning o'ta muhim bir tajribasiga e'tibor qaratishimiz lozim.

U ham bo'lsa, erkin iqtisod rivojlanishi uchun qonunlar bilan kafolatlangan sharoit tashkil qilib berishimizdir.

Bu mamlakatlarda davlat hokimiyati, uning nazorat va tekshiruv organlari iqtisodiyot va xo'jalik sub'ektlarining ishiga aralashmoqchi bo'lsa, ular faqat qonun ustuvorligi va uning bajarilishini ta'minlash nuqtai nazaridagina ta'sir o'tkazishi mumkin.

Bu sub'ektlarga boshqacha ta'sir o'tkazish qat'iyan ma'n etiladi".[7]

Odatda biz davlat deganda ko'pincha ko'z oldimizga jamiyatning bosh va ayni paytda juda murakkab mexanizmini tushunamiz. Lekin, bu faqat umumiy va nazariy yondoshuv xolos. Yana shu nuqtai nazardan, davlat deganda ikki xil bir-biridan mutlaqo farq qiluvchi tuzilmani tushunamizki, bu davlat bir tomondan jamiyatning, shu jumladan, iqtisodiyotning ham boshqaruv organi, instituti, ikkinchi tomondan, bozordagi boshqa sub'ektlar singari oddiy xo'jalik sub'ektidir. Lekin ba'zida biz ana tushuncha yondoshuvlarni chetlab o'tib, sub'ektiv yondoshgan holda, davlat deganda bir guruh jamiyatni boshqarayotgan kishilar jamoasini

tushunamizki, ana shunday ba'zi shaxslarning o'z vazifalarini to'laqonli anglab etmasliklari, zamon talabi ruhida fikrlay olmasliklari oqibatida ayrim keskin muammolar ham kelib chiqish ehtimoli yo'q emas. Bu borada I.A.Karimov o'zining 2002 yilning birinchi yarim yilligi yakunlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi yig'ilishidagi ma'ruzasida shunday ta'kidlaydi: "...ko'p joylarda nomaqbul odat tusiga kirib qolgan bir holatga, ya'ni kichik va o'rta biznesga, umuman, tadbirkorlikka sog'in sigir, deb qarashdek bemaza ishlarga barham berish kerak.

Zarur inshootlarni qurish va ta'mirlash, joylarda obodonlashtirish ishlarini amalga oshirishdek olijanob maqsadlarni bahona qilib har qaysi mahalliy rahbarning tadbirkorlardan o'zboshimchalik bilan o'lpon yig'ishiga, xayriya ishlarini majburiyatga aylantirishiga aslo yo'l qo'yib bo'lmaydi.

Bunday ishlarni, qonunchilik nuqtai nazaridan, tadbirkorlik, kichik va o'rta biznes sub'ektlari faoliyatiga zo'ravonlik va g'ayriqonuniy tarzda aralashish, deb baholash kerak".[8]

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti o'zining "O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari" mavzusidagi ma'ruzasida mamlakatda jamiyat hayotini demokratlashtirish va yangilash borasida ilgari surgan 7 ta ustuvor yo'nalishdan bevosita 2 tasi iqtisodiyotni erkinlashtirish, davlat hokimiyati organlarining kishilar va xo'jalik sub'ektlariga hayotiga aralashuvini cheklash masalasiga qaratilgan. Chumonchi, bu boradagi birinchi ustuvor yo'nalish – "inson huquqlari va erkinliklarini, so'z va matbuot erkinligini, shuningdek, oshkoralikni, jamiyatda o'tkazilayotgan islohotlarning ochiqqligini ta'minlaydigan demokratik tamoyillarni so'zda yoki qog'ozda emas, amaliy hayotda joriy qilish"ni[9] o'zida ifoda etadi. Prezident o'zining mazkur ma'ruzasida ushbu ustuvor yo'nalish mohiyatini asoslab berar ekan, jamiyatimizni yanada demokratlashtirish va fuqarolik institutlarini shakllantirish avvalo aholi siyosiy faolligining o'sishi, uning siyosiy, ijtimoiy va davlat hayotida nechog'li faol ishtirok etishi bilan uzviy bog'liqligiga e'tibor qaratadi.

Ushbu ma'ruzada I.A.Karimov tomonidan ilgari surilgan yana bir ustuvor tamoyil jamiyat hayotida nodavlat va jamoat tashkilotlarining o'rnini va ahamiyatini keskin kuchaytirish vazifasini o'zida umumlashtiradi. Ushbu tamoyil asosida I.A.Karimov tomonidan ilgari surilgan vazifalar tizimida quyidagi 2 tasi alohida ajralib turadi. Jumladan, **birinchisi**, "...Shuni unutmaylikki, biz davlatning nazorat funksiyalarini qancha kuchaytirsak, nazorat bilan shug'ullanuvchi davlat tuzilmalari va organlarini qancha ko'paytirsak, amaldorlarning zo'ravonligi va korrupsiya shuncha avj olaveradi. Shuning uchun biz jamoatchilik nazoratini, davlat faoliyati, shu jumladan, uning kuch ishlatuvchi tuzilmalari faoliyati ustidan ham jamiyat nazoratini har tomonlama kuchaytirishga alohida e'tibor qaratishimiz lozim".[10]

Ikkinchi vazifa sifatida esa markaziy va yuqori davlat boshqaruv idoralari vazifalarini davlat hokimiyatining quyi tuzilmalariga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o'tkaza borishni ta'minlash masalasi belgilandi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, O'zbekiston uchun bu vazifalar ilgaridan, islohotlarning dastlabki yillaridanoq belgilab qo'yilgan va bu borada muayyan ishlari amalga oshirilib kelingan. Ya'ni, bu vazifalar Prezidentimiz tomonidan 90-yillarda e'lon qilingan "Kuchli davlat – kuchli fuqarolik jamiyati sari" tamoyilini ro'yobga chiqarishning tadrijiy bosqichidir.

Umuman olganda 1999-2002 yillarni O'zbekistonda fuqarolik jamiyatining birlamchi sharti hisoblangan fuqarolik institutlarini tashkil etish, jamoatchilik nazoratini barpo qilish, aholining ijtimoiy-siyosiy faolligini kuchaytirish, sud-huquq tizimiga oid qonun

hujjatlarini takomillashtirishga qaratilgan bo'lsa, 2003 yildan keyingi davrda ma'muriy islohotlarni jadallashtirishga alohida e'tibor qaratila boshlandi. Ma'muriy islohotlarning asosiy yo'nalishlari:

- davlatning iqtisodiyotga aralashuvini tubdan qayta ko'rib chiqish;
- davlat boshqaruv va nazorat organlari tashkiliy tuzilmasini qayta ko'rib chiqish, takomillashtirish;
- soliq yukini kamaytirish, soliqlarni unifikatsiyalash;
- davlat hisobot tizimini takomillashtirish, statistik hisobotlar va hisobdorlik tizimini soddalashtirish va boshqa shu kabi jabhalarda o'z ifodasini topdi.

Bu borada I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 11 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlagan "Konstitutsiya – yurtimizda yangi hayot, yangi jamiyat barpo etishning huquqiy poydevori" nomli ma'ruzasida ta'kidlagan quyidagi fikrlarini keltirib o'tish joiz: "Ichki siyosatimizdagi eng muhim yo'nalish esa – bu ham juda chuqur, printsiplial ahamiyatga ega – hayotimizning barcha jabhalarini liberallashtirish, o'zbekcha aytganda, erkinlashtirish va yana bir bor erkinlashtirishdir.

Ya'ni, taraqqiyot poydevori bo'lmish iqtisodiyot sohasiga davlat aralashuvini keskin kamaytirish, xo'jalik yurituvchi korxonalar va tashkilotlarning mustaqilligi va erkinligini ta'minlash, bozor munosabati tamoyillariga so'zda emas, amalda rioya qilish, uning qonuniy kafolatlarini hayotga tatbiq etishdan iboratdir".

Birinchi yo'nalishdagi vazifalar jumlasiga, turli darajadagi boshqaruv tuzilmalarini eski ma'muriy-buyruqbozlik, taqsimlash tizimiga xos, o'z umrini o'tab bo'lgan vazifalardan xolos etish. O'z-o'zidan ayonki, agar bu vazifalar bo'lmasa, ularni bajaradigan amaldorlarga ham hojat qolmaydi. Bunday amaldorlarning o'zi ham endilikda ularning davri o'tganligini, butun boshqaruvning yangicha yondoshuvlari, uslub va vositalari talab etilayotganligini tushunib etadi.

Ikkinchi yo'nalishdagi vazifa – to'g'ridan to'g'ri moddiy resurslarni turli kvotalar, limit va ko'rsatmalar asosida markazlashtirilgan holda taqsimlash tizimiga butunlash barham berishdir.

Uchinchi yo'nalish vazifalariga statistik hisobot tizimini soddalashtirish, qulaylashtirish borasidagi islohotlar kiradi. Jumladan, 2004-2005 yillar davomida qishloq xo'jaligi sohasidagi statistik hisobot tizimi 65 foizga, sanoatda esa 33,5 foizga qisqargan.

To'rtinchi yo'nalishdagi vazifalarga nazorat organlari faoliyatini tartibga solish, ular sonini qisqartirish, xo'jalik sub'ektlari faoliyatini nazorat qilish va tekshirish munosabatlarini tubdan qayta ko'rib chiqish mansub bo'lib, keyingi yillarda nazorat organlari soni qariyb 2,5 martaga kamayganligi e'tiborga molik.

Beshinchi yo'nalishdagi vazifalar xo'jalik faoliyati bilan bog'liq qonunbuzilishlar uchun beriladigan jazoning liberallasuvi bilan bog'liq bo'lib, bu birinchidan, etkazilgan zararining qoplanish imkoniyatini oshiradi, ikkinchidan, nazorat organlarining tadbirkorlik sub'ektlariga nisbatan qo'rqitish, zo'rvonlik yo'lini tutish imkoniyatiga barham beradi.

2005 yilda davlat va nazorat tuzilmalarining korxonalar moliya-xo'jalik faoliyatiga aralashuvini keskin qisqartirish, xo'jalik sub'ektlari ham tadbirkorlikning iqtisodiy erkinligini va huquqlarini sezilarli darajada kengaytirish bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirildi. Tekshiruvlar soni 2001-2005 yillar davomida 2,5 martadan ko'proqqa qisqardi. Ilgari xo'jalik sub'ektlari tomonidan topshirilgan davlat statistik hisobotlarining umumiy soni ikki marta,

oylik hisobotlar soni esa 5 martaga qisqardi. Ruxsat berish bilan bog'liq 12 protsedura bekor qilindi, hisobot ma'lumotlarini noqonuniy talab qilganlik uchun javobgarlik kuchaytirildi.

Nazorat idoralarining xo'jalik sub'ektlari va tadbirkorlik ob'ektlarini tekshirish natijalari bo'yicha qabul qilingan qarorlarini sud idoralari orqali amalga oshirish tartibi o'rnatildi. Bunday tartib o'z-o'zicha mazkur sub'ektlarga nisbatan turi sanksiyalarni qo'llashni ham tubdan o'zgartirish, ya'ni, uni sud qaror bilan o'rnatishni belgilab beradi.

Ma'muriy islohotlarning natijalari avvalambor boshqaruv tuzilmalarining ma'no-mazmuni va maqsadlarining o'zgarishi, ularning boshqaruv va nazorat vakolatlarining keskin qisqartirilishi, kerak bo'lsa, barham topishi, shuningdek, xo'jalik sub'ektlarining ishiga noqonuniy aralashuvga, ularning faoliyatini cheklashga qaratilgan hatti-harakatlarga yo'l qo'ymaslik bilan uzviy bog'liq.[12]

Mintaqalarda tadbirkorlik uchun qulay muhitni shakllantirishda davlat nazorat organlari faoliyatini cheklash bilan bog'liq masalaga davlat rahbari 2011 yilning 21 yanvarida bo'lib o'tgan 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-ihtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi "Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi" nomli ma'ruzasida ham alohida to'xtalib, quyidagi vazifalarni ilgari suradi: "... tadbirkorlik faoliyati muhitining qanday holatda ekani, buning uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish va bu faoliyatning amaldagi rivojlanish sur'atlari barcha darajadagi hokimlar faoliyatini baholashning asosiy mezoniga aylanishi darkor.

Bosh prokuraturaga kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlarining moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga har qanday noqonuniy aralashuvni iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish bo'yicha davlat siyosatiga qarshi qaratilgan harakat sifatida ko'rib chiqish va huquqbuzarlarga nisbatan qonunchilikka muvofiq javobgarlik normalarini qo'llash vazifasi topshiriladi.

Ikkinchidan, Vazirlar Mahkamasiga kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini tartibga soladigan qonun hujjatlarini tanqidiy tahlil qilish vazifasi topshiriladi.

Eskirgan, sun'iy ravishda o'ylab chiqarilgan va ko'pincha hech kimga keragi bo'lmagan cheklov va taqiqlarni bartaraf etish, davlat va nazorat organlarining kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining moliya-xo'jalik faoliyatiga aralashuvini yanada keskin kamaytirish darkor".[14]

Xulosa.

Xulosa qilib ta'kidlash joizki, davlatning nazorat faoliyatini tartibga solish sohasidagi islohotlar bugungi kunda o'zining yangi pallasiga kirdi. Chunonchi, Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 12 noyabrdagi qo'shma majlisidagi "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi" nomli ma'ruzasida bu boradagi vazifalar quyidagi tavsiflanadi: "Hozirgi vaqtda yana bir muhim masala - mamlakatimiz iqtisodiyotida kichik biznes, birinchi navbatda xususiy tadbirkorlikning roli va ulushini yanada kengaytirishni ta'minlay oladigan qonunlarni qabul qilish masalasi biz uchun dolzarb bo'lib qolmoqda. O'zbekistonning bu yilgi yalpi ichki mahsulotida kichik biznesning ulushi 50 foizdan ortib borayotganiga qaramasdan, afsuski, bu soha real iqtisodiyotimizda, avvalambor sanoatda yetakchi o'rinni egallay olmayapti. Ushbu vazifani hal etish uchun "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunning yangi tahririni tayyorlash zarur. Bu qonunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

sub`ektlarini tashkil qilish yo'llarini soddalashtirish, ularning faoliyati uchun ko`proq erkinliklar berishni ko`zda tutish lozim. Ushbu sektorni kreditlash, resurslardan foydalanish, davlat buyurtmalarini olish, tadbirkorlik sub`ektlari ishlab chiqarayotgan mahsulotlarni sotish uchun yangi imtiyozlar berish, xalqaro amaliyotga muvofiq daromadlarning yillik deklaratsiyasi shakliga bosqichma-bosqich o`tish, moliya va statistika hisobotlari tizimini yanada soddalashtirish, jumladan, bunday hisobotlarni vakolatli davlat organlariga elektron shaklda taqdim etish kabi mexanizmlar hisobidan qo`llab-quvvatlash masalalari ham qonunda o`z aksini topishi darkor".[13]

References:

1. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. // O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo`shma majlisidagi ma`ruzasi. Manbaa: <http://www.gov.uz>
2. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. // O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo`shma majlisidagi ma`ruzasi. Manbaa: <http://www.gov.uz>
3. Doklad o chelovecheskom razvitii Uzbekistan T.: O`zbekiston, 2000
4. Karimov I.A. "Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi". // 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-ihtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo`ljallangan eng muhim ustuvor yo`nalishlarga bag`ishlangan O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma`ruza. - T.: "Xalq so`zi" gazetasi, 2011 yil, 22 yanvar`.
5. Karimov I.A. O`zbekiston XXI asrga intilmoqda. - T.: O`zbekiston, 1999 y. 12-bet.
6. Karimov I.A. Demokratik taraqqiyot yo`lidan. 2002 yil 27 yanvar - umumxalq referendumini munosabati bilan ommaviy axborot vositalari xodimlariga berilgan intervyu. // Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. - T-10, - T.: O`zbekiston, 2002 y, 186-b.
7. Karimov I.A. "Yangilanish va o`zgarishlar jarayoni ortga qaytmaydi". Ikkinchi chaqiriq O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining VIII sessiyasidagi ma`ruza. // "Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak" T-10, - T., O`zbekiston, 2002 y, 325-b.
8. Karimov I.A. "Odamlarning tashvish va orzu intilishlari bilan yashash faoliyatimiz mezoniga aylansin". 2002 yilning birinchi yarim yilligi yakunlariga bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasi yig`ilishidagi ma`ruza. // "Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak" T-10, - T., O`zbekiston, 2002 y, 401-402-b.
9. Karimov I.A. "O`zbekistonda demokratik o`zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo`nalishlari". Ikkinchi chaqiriq O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining to`qqizinchi sessiyasidagi ma`ruza. // "Biz tanlagan yo`l - demokratik taraqqiyot va ma`rifiy dunyo bilan hamkorlik yo`li". T-11, - T., O`zbekiston, 2003 y., 23-b.
10. Karimov I.A. "O`zbekistonda demokratik o`zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo`nalishlari". Ikkinchi chaqiriq O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining to`qqizinchi sessiyasidagi ma`ruza. // "Biz tanlagan

yo`l - demokratik taraqqiyot va ma`rifiy dunyo bilan hamkorlik yo`li". T-11, - T., O`zbekiston, 2003 y., 28-29-b.

11. Karimov I.A. "Erishgan marralarimizni mustahkamlab, islohotlar yo`lidan izchil borish - asosiy vazifamizdir" 2003 yil yakunlariga bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasi yig`ilishidagi ma`ruza. // "Tinchlik va xavfsizligimiz o`z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat`iy irodamizga bog`liq". T-12, - T., O`zbekiston, 2004 y., 219-b.

12. Karimov I.A. "Erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, yangi marralar sari izchil harakat qilishimiz lozim". 2005 yil yakunlariga bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasi yig`ilishidagi ma`ruza. // "Inson, uning huquq va erkinliklari - oliy qadriyat". T-14, - T., O`zbekiston, 2006 y., 166-169-b.

13. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontsepsiyasi. // O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo`shma majlisidagi ma`ruzasi. Toshkent, 2010 yil, 12 noyabr. Manbaa: www.gov.uz

14. Karimov I.A. "Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi". // 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-ihtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo`ljallangan eng muhim ustuvor yo`nalishlarga bag`ishlangan O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma`ruza. - T.: "Xalq so`zi" gazetasi, 2011 yil, 22 yanvar.